

AYOLLAR HUQUQLARI HIMOYASINING RESPUBLIKA VA XALQARO DARAJADAGI AHAMIYATI

Ummatova Iqboloy

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik

fakulteti 2-kurs talabasi

e-mail: iqboloyummatova27gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola doirasida muallif ayollar huquqlarining himoyasi hamda gender tengligi va uning mamlakatdagi holati, ayollar huquqlarini himoya qiluvchi mahalliy va xalqaro tashkilotlar hamda normativ-huquqiy hujjatlar ahamiyatini yoritib bergan. Shuningdek, mavzu borasidagi statistika tahlil qilingan va mazkur sohadagi yutuq va kamchiliklar haqida to'xtalib o'tilgan. Maqolada gender tengligi tushunchasining nazariy jihatini ham atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: gender tengligi, komissiya, BMTning Gender tengligi va Ayollar huquqlarini kengaytirish bo'yicha tashkiloti, patriarxal tizim, strategiya.

Insoniyat o'z hayoti davomida asrlarni boshdan kechirar ekan, rivojlanib, shuningdek yildan-yilga o'zgarib boradi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda ayollarning vazifasining asosini uy ishlari tashkil etgan. Jamiyatdagi xo'jalik, ijtimoiy va siyosiy sohadagi ishlar bilan asosan erkaklar shug'ullanganligini ko'rishimiz mumkin. Ammo, yillar o'tishi bilan ayollar ham jamiyatda o'z o'rnlariga ega bo'la boshladilar, siyosat va ilm-fanda ayollar faolligi oshdi. Bugungi kunga kelib esa ayollar jamiyat va davlat hayotida ma'rifatga yo'g'rilgan islohotlar, ezgu ishlar yo'lida ona Vatan ravnaqiga munosib hissa qo'shmoqda. Hayot shiddat bilan o'zgarayotgan davrda jamiyat ham taraqqiy etar ekan, insonlar ham zamon bilan hamnafas bo'lishga harakat qilashadi. Bu ayollarga ham tegishlidir. Endilikda ayollar faqat uy-ishlari, bola tarbiyasi bilan shug'ullanib, "yo oila, yo ish",- degan fikrlar gender tengligiga to'sqinlik qiladi. Ko'rib turibmizki, rivojlanishning eng o'tkir muammolaridan biri tenglikka erishish, ayniqsa, jamiyatda ham, oilada ham erkak va ayolning gender tengligiga erishish eng og'ir masalalardan biridir.

Shu o'rinda gender tengligi tushunchasiga ta'rif berib o'tsak. **Gender tengligi aniqrog'i: erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik** — bu oilada va jamiyatda erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar. **Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra**, gender tengligi — bu patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichi. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to'siqlarni o'rganish va yo'q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy

imkoniyatlarni yaratishdan iborat. **O'zbekiston gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi.** 2019-yil holati bo'yicha O'zbekistonning gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatdagi 189 mamlakat ichida **62-o'rinni egalladi.** Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) ekspertlarining fikriga ko'ra, O'zbekistondagi **har 100 000 dan 29 ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi va 15-19 yoshdagi har ming o'spirin qiz uchun tug'ish ko'rsatkichi 23,8 ni tashkil qiladi.** Gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxati bo'yicha 62-o'rinda O'zbekiston bilan bir qatorda Kosta-Rika va Urugvay ham 0,288 ko'rsatkichi bilan qayd etilgan. O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida Qozog'iston 44-chi, Qirg'iziston 82-chi, Tojikiston 70-chi o'rinlarni egallashgan, Turkmanistonda esa bu ro'yxatda hech qanday ma'lumot ko'rsatilmagan. O'zbekistonda 2019-yil 2-sentabrda 562-sonli O'zbekiston Respublikasi „Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida“gi Qonuni qabul qilingan. O'zbekistonda Gender tenglik bo'yicha Komissiya 2019-yildan boshlab ish yuritib keladi. **Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narbaeva O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasining raisi hisoblanadi.** BMT va gender tengligi 2015-yilda [Pokiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining](#) Gender tengligi va ayollarning huquqlarini kengaytirish bo'yicha bo'limi tomonidan hisobot tayyorlandi. Bu hisobot „**BMT-ayollar**“ deb tanilgan. Hisobotning markaziy masalalaridan biri ayollarni ish bilan ta'minlash masalasi edi. Hisobot mualliflarining fikriga ko'ra, oliy ma'lumotli ayollar soni tarixiy maksimal darajaga yetganiga qaramay, ularning ish bilan ta'minlanish holati achinarli ko'rinishga ega. [Universitetlarni](#) imtiyozli diplom bilan tugatgan yosh qizlar, ayniqsa, [tibbiyot](#) va [matematika](#) kabi fanlardan yosh yigitlarni tobora ortda qoldirishlariga qaramay, ish topa olmaydilar. Hatto ish topishga muvaffaq bo'lganlar ham har doim ham ijtimoiy ishonchsizlik tufayli o'zlarini ishonchli his qila olmaydilar. Ushbu masala rivojlanayotgan mamlakatlarda ayniqsa dolzarb bo'lib, ularda ayollarning 75 foiz ish o'rinlari, ish beruvchi tomonidan qonuniy majburiyatlari himoyalanganini tashkil etadi. Hisobotda ta'kidlanganidek, rivojlangan mamlakatlarda gender tengligi holati ham ideal darajadan uzoq emas. Masalan, Shvetsiya va Fransiya ayollar erkaklarnikiga nisbatan maoshlaridagi farq 31 foizga kam, Germaniyada 49 foizga kamroq, Turkiyada esa 75 foizga teng. Hisobot mualliflarining fikriga ko'ra, gender tengsizligiga qarshi kurashning asosiy choralari butun dunyo bo'ylab ayollarni yaxshi ish joylari bilan ta'minlash huquqi kerak.¹

Ming afsuski, xotin-qizlar ko'pincha rivojlanish jarayonidan chetda qoladi va hatto unda ishtirok etgan taqdirda ham juda katta qiyinchiliklar, yo'qotishlar (bunda ko'pgina hollarda oilaviy nizolar, ajrimlar) evaziga erishadi. Mazkur holatlarningni

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender_tengligi

oldini olishda **2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida”** O‘zbekiston Respublikasining qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rniga qaratilgan huquqiy himoya, huquqiy kafolat sifatida ma’qullangandi. Bundan tashqari **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida** xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi mustahkamlab qo‘yilgan. Bosh qomusimiz 58-moddasiga muvofiq xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi.² Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining **„2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”** gi qarori ushbu masalada muhim hisoblanadi.³ Gender strategiyasi doirasida gender tenglik tushunchasi jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta’lim, ilm-fan, sport munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarining tengligini anglatadi.

Mamlakatimizda ayollar va erkaklar teng huquqliligini ta’nimlash borasida bir qator organlar o‘z ish faoliyatini olib boradi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi hisoblanadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Xotin-qizlar va oila masalalari qo‘mitasi, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, Davlat statistika qo‘mitasi, Inson huquqlari bo‘yicha Milliy qo‘mita, Ombudsman, fuqarolik jamiyati tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda ish olib boradi.

Gender tengligi nafaqat insonning asosiy huquqi, balki tinch, farovon va barqaror dunyo uchun zarur poydevordir. [So‘nggi o‘n yilliklarda gender tenglik masalalarida rivojlanish kuzatilmoqda](#) : ko‘proq qizlar maktabga boryapti, kamroq qizlar erta turmushga chiqishga majbur qilinmoqda, ko‘proq ayollar parlamentda va rahbarlik lavozimlarida ishlamoqda, gender tengligini oshirish uchun qonunlar isloh qilinmoqda. 2030-yilgacha gender tengligi xususiy va davlat sohalarida ayollar huquqlarini cheklab qo‘yayotgan kamsitishning ko‘plab asosiy sabablarini bartaraf etish bo‘yicha shoshilinch choralar ko‘rishni talab qiladi. Masalan, kamsituvchi qonunlarni o‘zgartirish va tenglikni faol rivojlantirish uchun qonunlarni qabul qilish kerak. Shunga qaramay, 49 mamlakatda ayollarni oiladagi zo‘ravonlikdan himoya qiluvchi qonunlar hali ham mavjud emas, 39 ta davlatda esa qizlar va o‘g‘illar uchun teng meros huquqi mavjud. Gender asosidagi zo‘ravonlikka barham berish bugungi kunda dunyodagi eng dolzarb masaladir. Ayollarning barcha sohalaridagi samarali

² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O‘zbekiston” Toshkent-2023

³ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-son

mehnati, ayniqsa, farzandlar tarbiyasi, oila hayotidagi ulkan xizmatlarini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi.⁴ Yurtboshimiz xotin-qizlar masalalari borasida so'nggi yeti yilda 300 dan ortiq topshiriq, vazifalar va e'tibor hamda e'tiroflar qilganliklari tahsinga sazovor. Xotin-qizlarimiz nafaqat oilada tarbiyachilik qilish, balki davlat islohotlarini amalga oshirishda ham o'z faolliklarini ko'rsatmoqdalar. 2023-yil holatiga ko'ra, ayollarimizning ulushi tibbiyotda 77 foizga, ta'lim sohasida 74 foizga, iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida 46 foizga yetgan bo'lib, 2 ming nafarga yaqini esa davlat va jamoat tashkilotlarida rahbarlik lavozimlarida xizmat qilib kelmoqda. Bir vaqtning o'zida ham oila, ham davlat ishlarini yuritishda o'zlarining bilim-salohiyati bilan o'rnak ko'rsatayotganliklari ma'naviy jasoratdir.

Ayollar huquqlarini himoya qilish va gender tengligiga erishish nafaqat mamlakatimizda balki xalqaro darajada ham muhim ahamiyatli masalalardan biridir. **Birlashgan Millatlar Tashkilotining Gender tengligi va Ayollar huquqlarini kengaytirish bo'yicha tashkiloti** [BMTning gender tengligi](#) va ayollar huquqlarini kengaytirish bo'yicha faoliyat yurituvchi tashkilotidir.⁵ BMT Ayollar tashkiloti [Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ayollar uchun Taraqqiyot Jamg'armasi](#) (UNIFEM, 1976-yilda tashkil etilgan) va boshqa tashkilotlarning qo'shilishi natijasida tashkil etilgan bo'lib, 2011-yil yanvar oyida faoliyat boshlagan. BMT Ayollar tashkiloti butun dunyo bo'ylab ayollar va qizlar uchun Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish maqsadini ko'zlaydi va **4 ta strategik ustuvorlikka** e'tibor qaratgan holda hayotning barcha jabhalarida ayollarning teng ishtirokini qo'llab-quvvatlaydi:

- hukumat faoliyatida ayollar boshqaruvi va ishtiroki tengligini ta'minlash;
- ayollarning daromad olish, munosib ish tanlash va iqtisodiy mustaqillikka ega bo'lish imkoniyatini yaratish;
- barcha ayollar va qizlar zo'ravonlikning barcha shakllaridan xoliligi;
- ayollar va qizlar barqaror tinchlik va insonparvarlik harakatlaridan teng foyda olishi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa sifatida aytishimiz mumkinki gender tengligi va xotin-qizlar imkoniyatlarini yanada kengaytirish, sohasidagi tizimli o'zgarishlarni ilgari surish uchun jamiyatda mustahkam o'rnashib olgan stereotiplar va me'yorlarni o'zgartirish maqsadga muvofiq. Buning uchun bizningcha quyidagilarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega:

- 1) huquqiy va ijtimoiy normalar va qoidalarini o'zgartirish.
- 2) Xotin-qizlar ta'limiga alohida e'tibor qaratish
- 3) Jamiyatimizdagi ayollarning vazifasi faqatgina „Uy ishlari“ degan eskicha qarashlarni yo'qotish

⁴ Muhammad Ayub va Odilova Mohira "Gender tengligi va ayollarning huquqlari" maqola 2022

⁵ The United Nations Entity for Gender Equality and the Empowerment of Women

4) Ayollarning jamiyat boshqaruvi lavozimlarida ishlashi uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston" Toshkent-2023
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-son
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender_tengligi
4. Muhammad Ayub va Odilova Mohira "Gender tengligi va ayollarning huquqlari" maqola 2022
5. The United Nations Entity for Gender Equality and the Empowerment of Women